
Germaniya investitsiyasi – Farg‘onaga!

Aka-uka tog‘ injenerlari – Karl va Alfons dunyo sanoat tarixida qurilish materiallari ishlab chiqarib, mashhur bo‘lishgan. Endi bu oilaviy firmani ularning o‘g‘illari Nikolas va Baldvinlar boshqarmoqdalar. Dunyoning 35 dan ortiq mamlakatida 120 dan ziyod zavodlariga ega bu yirik kompaniya ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalar, tinimsiz izlanishlar tufayli yangi turdagi turfa mahsulotlar ishlab chiqarishi bilan jahonda etakchilik qiladi. Vengriya, Avstriya, Vena, Polsha, Belgiya, Italiya, va Shveysariyada firmaning yirik zavodlari faoliyat olib bormoqda. Gips, gipsokarton kabi turli qurilish materiallari singari bu korxonada mahsulotlariga talab juda katta.

1982 yilda “KNAUF” oilaviy savdo firmasi mukofotni qo‘lga kiritgan ilk qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonada sifatida “Oskar” tarixida qoldi.

Mustaqilligimizning 27 yilligi bayrami arafasida Prezidentimiz Germaniyaning “KNAUF” korxonalar guruhini ishtirokchilari Kengashi a‘zosi Nikolaus Knaufga “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

Kecha germaniyalik ishbiarmon Nikolaus Knauf Farg‘onaga tashrif buyurdi. Farg‘ona xalqaro aeroportida nufuzli mehmonni karnay-surnay sadolari ostida viloyat hokimi Shuhrat G‘aniev va keng jamoatchilik kutib oldilar.

Xorij sarmoyadori O‘zbekiston tumanidagi Sho‘rsuv kichik sanoat zonasini borib ko‘rdi, chet el korxonasi quriladigan hududlar bilan tanishdi.

Germaniyalik biznesmen samimiy qabul va mehmondo‘stlik uchun viloyat hokimiga minnatdorchilik bildirdi. Unga Farg‘onaning hunarmandchilik, misgarlik namunalari topshirildi.

Agar O‘zbekiston tumanida gipsokarton va boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqariladigan ushbu chet el korxonasi qurilsa, viloyatimizga Germaniya investitsiyasi kiritilsa, ko‘zlangan loyihalar amalga oshirilsa, tumandagi Oyimcha, Qaqir, Nursux kabi qishloqlar aholisi bandligi ta‘minlanadi. Sanoatimiz rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shiladigan “KNAUF” mahsulotlari endi Farg‘onada ishlab chiqariladi.

2018-09-17 17:47:05